

## BUYUK MUTAFFAKIRLAR MUSIQAVIY TARBIYA HAQIDA

Dadaboyev Xasanboy Maratovich

Andijon davlat universiteti

Musiqiy ta'lim kafedrası v.b.dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12598029>

**Annotatsiya.** *ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida buyuk mutaffakirlarning musiqaviy tarbiya haqida so'z yuritilgan. Xalqimizning juda qadimiy, boy va teran tarixiy ildizlariga ega bo'lgan musiqa merosi hamma davrlarda ham o'zining tarbiyaviy ta'sirchan badiiy g'oyalari bilan kishilarning ma'naviy-estetik tarbiyasida muhim o'rin tutib kelganligi.*

**Kalit so'zlari:** tarbiya, allomalar, musiqa merosi, irsiyat, muhit.

## GREAT THINKERS ON MUSICAL EDUCATION

**Abstract.** *This article describes the musical education of great thinkers in the education of young people. The fact that the musical heritage of our people, which has very ancient, rich and deep historical roots, has always occupied an important place in the spiritual and aesthetic education of people with its educational and expressive artistic ideas.*

**Keywords:** education, academic degrees, musical heritage, heredity, environment.

## ВЕЛИКИЕ МЫСЛИТЕЛИ О МУЗЫКАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ

**Аннотация.** *В этой статье рассказывается о музыкальном воспитании великих мыслителей в воспитании молодежи. То, что музыкальное наследие нашего народа, имеющее очень древние, богатые и глубокие исторические корни, во все времена занимало важное место в духовно-эстетическом воспитании людей своими воспитательно-выразительными художественными идеями.*

**Ключевые слова:** воспитание, ученые степени, музыкальное наследие, наследственность, окружающая среда.

Mustaqil rivojlanish yo'lidan dadil odimlayotgan Respublikamizni jahondagi eng ilg'or mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga erishish ko'p jihatdan yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga bog'liqdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridan eng avvalo ta'lim tizimini isloh qilish, uni milliy-ma'naviy qadriyatlar negizida shakllantirish, jismoniy sog'lom, ma'naviy etuk, aqliy barkamol insonlarni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratildi.

O'zbekistonni buyuk kelajagini yaratishda yoshlarning ta'limi va tarbiyasiga asosiy va hal qiluvchi omil sifatida ahamiyat berib kelayotganligi bejiz emas. Aytish joizki, bunday mas'uliyatli vazifani ijobiy hal qilishda musiqiy-estetik tarbiyaning ham juda katta imkoniyatlari mavjud. Xalqimizning juda qadimiy, boy va teran tarixiy ildizlariga ega bo'lgan musiqa merosi hamma davrlarda ham o'zining tarbiyaviy ta'sirchan badiiy g'oyalari bilan kishilarning ma'naviy-estetik tarbiyasida muhim o'rin tutib kelgan. Mana shunday o'lkan ma'naviy boylikdan yoshlarni badiiy-estetik tarbiyalashda yanada unumli foydalanish orqali ularning qalbida ezgulik, halollik, poklik, insonparvarlik, do'stlik, vatanparvarlik, millatga, milliy qadriyatlarga muhabbat his-tuyg'ularini shakllantirishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Pedagoglar musiqani ongli faoliyat, samarali mehnat, samimiy munosabatda hamda mo'tadil kayfiyat garovi bo'la olishda o'z mehnatini ayamasligi zarurdir. Musiqa kundalik hayotimizga qanchalik singib borsa, hayotimiz shunchalik zavkli va mazmunli bo'ladi.

“Ta’lim tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o’qitish metodlari ta’lim standartlari, darslik va o’quv qo‘lalanmalarini yaratish va yangilash zarurligi bilim berishda chet eldagi ilg‘or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an‘ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi”<sup>1</sup>

Jamiyatimizda oila, maktab va jamiyatchilik oldiga bolalarda hayotga ijodiy munosabatda bo‘lish qobiliyatini tarkib toptirish vazifasi qo‘yilgan. SHuning uchun ham bizda musiqa alohida tarbiyaviy ahamiyatga egadir. San‘atning eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan musiqa o‘quvchilarga insonning g‘oyat keng dunyosini, o‘zlarini qurshab turgan hayotni va zamondoshimiz ko‘zi bilan o‘tmishni yaqqol gavdalantirib berishi mumkin. Ana shu sababli ularda musiqaga qiziqish uyg‘otishda pedagoglar milliy dasturi talablariga bo‘ysungan holda musiqa asarlari tilining ayrim ifoda xususiyatlarini tushuntirishga, intilishini vujudga keltirish, musiqaviy didni tarbiyalash va fikr doirasini kengaytirish juda muhim vazifa bo‘lib, bu vazifani amalga oshirish uchun ularni o‘zbek xalq ijodining ommaviy janrlari va bastakorlarning asarlari bilan muntazam ravishda va maqsadga muvofiq holda tanishtirib borish zarur. Umumta’lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etishda belgilangan vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning hayotini muhofaza qilish va sog‘ligini mustaxkamlash;
- o‘quvchi shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta‘minlash;
- o‘quvchilarning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- o‘quvchilarning milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish.

Ilg‘or g‘oyalarni, davrimiz obrazlari va ziddiyatlarni shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda hamda zamonamiz nutqining nazariy tarannum etuvchi asarlari o‘quvchilarda g‘oyaviy e‘tiqodni, ma‘naviy va estetik g‘oyalarni tarbiyalash uchun boy manbaa hisoblanadi.

Musiqa tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni juda kattadir, ulardan foydalanish pedagoglarga bog‘liq. Yoshlar ma‘naviyatni rivojlantirish davlatimizning bosh vazifasiga aylangach, barcha sohalar kabi san‘atga, xususan musiqa san‘atiga bo‘lgan e‘tibor va talab kuchaytirildi.

Butun dunyoga mashhur qomuschi olim Abu Ali Ibn Sinoning musiqaviy merosini keng ma‘noda o‘rganish o‘quvchilar tarbiyasida sihat salomatlikni muhofaza qilishda, kasalliklarni davolashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari Abu Ali Ibn Sinoning “An-Najot” “Donishnoma” asarlarida musiqa haqida kichik bo‘limlari mavjud. “Tib qonunlari”, “Risoi ishq” va boshqa asarlarida musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan, o‘z davri musiqa san‘atining barcha muammolarini bayon etgan: nag‘ma, bo‘g‘d (interval), lad tuzumlari, kuy yaratish, musiqa asboblari haqida ma‘lumotlar bergan.

Ibn Sino musiqiy go‘zallik haqida mukammal ma‘lumotni ilgari surib, musiqani hamohangligini eng kamolga yetgan turi deb bilgan. Tabib sifatida u musiqani muhim tabiiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglari rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo‘lganligi haqidagi nazaryasi hozirgi zamonaviy musiqa nazaryamizga mos keladi. Buyuk donishmand o‘zining barkamol shaxsni tarbiyalash g‘oyasida musiqani asosiy vositalar sifatiga kiritgan.

<sup>1</sup> Ziyavutdinova Z.U. ‘Musiqa madaniyati o‘qituvchisining pedagogik mahoratini shakllantirish faoliyatlari’ “Madaniyat va San‘at” jurnali №10, 2023.56-b

Ma'lumki bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat muhitining ta'sirini inkor etib faqat tarbiya jarayonini tan oladilar. Lekin, buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi ya'ni u insonning kamolotga yetishishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada nasl –nasab, ijtimoiy muhit va insoniy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Farobiyning musiqashunoslikka qo'shgan hissasi beqiyosligi shundaki, u yangi musiqa asbobi yaratgan, mohir sozanda, bastakor, yirik musiqa nazaryotchisi sifatida ta'riflanadi. Farobiy ixtiro qilgan musiqa asbobining nomi "Qonun", "G'ipchak" (g'ijjak), "ud" deb turlicha talqin etiladi. Uning ba'zi musiqa asarlari Eronda va Sharqning boshqa mamlakatlarda hozirga qadar ham ijro etilib kelayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Abu Nasr Farobiy musiqa nazaryasi ilmi hususida ham ulkan ishlarni amalgam oshirganligi bois uning ijodida qator asarlar o'z ifodasini topganligiga guvoh bo'lamiz. Ular orasida "Katta musiqa kitobi" musiqashunoslar orasida keng tarqalgan. Farobiyning bu asari musiqa nazaryasini o'rganish bilan bog'liq masalalarga qaratilganligi bois, uning salohiyati oldingi yozilgan boshqa asarlardan g'oyat salmoqli ekanligi bilan ajralib turadi. Asar Sharq va G'arbda musiqa nazaryasi taraqqiyotini bir necha asrga belgilab berganligi bilan yanada ahamiyatli hisoblanadi. Mutafakkirning asarlarida musiqaning hususiyatli tomonlari asoslanib, nazariy tushunchalar izohlanadi. Jumladan, musiqa asarining tarkib topish mohiyatlari, unda qo'llanilgan musiqiy elementlar atroflicha tahlil qilib beriladi.

Farobiyning musiqa sohasidagi ilmiy merosi G'arb olimlari, musiqashunos tanqidchilari tomonidan ijobiy baholanib, chuqur darajada o'rganilgan. Yevropaning musiqashunos, tarixchi olimi G.Sarton Farobiyning quyidagicha ta'riflaydi: "Farobiy musiqashunoslik sohasida o'z davrining Yevropa nazaryalaridan ancha oldinda edi". Farobiyning – Sharq musiqasining nazaryotchisi sifatida Yevropalik olimlar tomonidan tan olinishi uning buyuk musiqashunos bo'lganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Farobiy Sharq musiqashunosi sifatida katta ilmiy –musiqiy meros qoldirgan. "O'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg'u bilan ta'kidlashgan"<sup>2</sup>

Somoniylar davlati shaharlari orasida Buxoro katta shuhrat qozondi. Saroy shoirlari va musiqachilarning ijodida asosiy janr xukmron shaxslarni maqtaydigan va sharaflaydigan qasida edi. Uning muqaddima qismi (nasib)ga cholg'u asbobi jo'r bo'lar edi. "Musiqqa san'atining tarixiy shakllanish jarayoni dastlab, tabiat hamda tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushunishga harakat qilishga bo'lgan ehtiyoj sifatida, ilk mifologik tassavurlar ta'siri ostida kechib, keyinchalik kohinlar boshchiligida o'tkaziladigan turli marosimlarning ruhiyma'naviy oziq mazmuniga aylangan"<sup>3</sup>

Bunday boy tarixga ega davlat faqat yuksalishga go'zallikka erishishga loyiqdir. Bu so'zlarimizning guvohi sifatida barpo etib kelinayotgan inshootlar, o'quv maskanlari, maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida jadal ish olib borayotgani, musiqa va san'at maktablarining xozirgi zamon talabiga javob beradigan darajasida rekonstruktsiya qilinayotgani, texnologik rivojlanish davrida yuksak cho'qqilarga erishayotganimiz. "O'zbek xalq

<sup>2</sup> Raimova D.M. "Musiqqa madaniyati" darslari samaradorligini oshirishda musiqiy o'yinlarning ahamiyati. "Madaniyat va San'at" jurnali №10,2023,58-b

<sup>3</sup> Saidiy Said Bolta-Zoda. O'zbek musiqasi tarixi darslik, Toshkent– 2019 ,70-b

musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega"<sup>4</sup>

Ma'lumki yosh avlodning ma'naviy – ahloqiy jihatdan barkamol inson bo'lib yetishishida musiqaviy tarbiya alohida o'rin tutadi. Zero musiqa vositasida boshqa ta'sir etuvchi omillar (so'z, harakat, tasvir va boshqalar) bilan berib bo'lmaydigan his – tuyg'ularni mexanizimi to'liq o'rganilmagan sirli vositalar orqali o'zlariga yetkazish mumkin. Shuning uchun ham g'amgin, tushkunlikka tushgan kishining ko'nglini ko'tarishda og'zaki pand-u nasihatdan ko'ra mumtoz kuy, tegishli qo'shiqlar ancha maqsadli ta'sir qilishi insoniyatga azaldan ma'lum. Vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhi bilan sug'orilgan kuy – qo'shiqlar bunyotkorlik, xalq xizmati yo'lida bel bog'lab xormay tolmay mehnat qilishga undashi, yovuz niyatli dushmanga qarshi kurash kayfiyati bilan bitilgan musiqa katta-yu kichikda beqiyos kurashchanlik shijoatini uyg'otadi, misli ko'rilmagan qahramonliklar sodir qilishga olib keladi.

### REFERENCES

1. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent– 2018
2. Saidiy Said Bolta-Zoda. O'zbek musiqasi tarixi darslik, Toshkent– 2019
3. Ziyavutdinova Z.U. “Cholg'u ijrochiligi va ansambli” O'quv qo'llanma. Farg'ona nashriyoti, 2022, 65-b
4. Raimova D.M. “Dirijorlik”. O'quv qo'llanma, Farg'ona nashriyoti, 2022, 85-b
5. Ziyavutdinova Z.U. ‘Musiqqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratini shakllantirish faoliyatlari’ Madaniyat va san'at” jurnali №10, ISSN: 2181-4562 DOI Journal10.56017/2181-4562 2023.56-b
6. Raimova D.M.“Musiqqa madaniyati” darslari samaradorligini oshirishda musiqiy o'yinlarning ahamiyati. “Madaniyat va san'at” jurnali №10, ISSN: 2181-4562 DOI Journal10.56017/2181-4562. 2023,58-b

---

<sup>4</sup> A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova O'zbek musiqasi tarixi. T.- 2018,4-b